

"QUTURISH - OLDINI OLIISH MUMKIM BO'LGAN O'LIM"

Xudoykulova Ozoda Azim qizi

Samarqand davlat tibbiyot universiteti

Davolash ishi fakulteti talabasi

Ilmiy rahbar: Boltayev Komiljon Sultonovich

Mavzuning dolzarbligi

Quturish kasalligi — bu faqat tarixiy xavf emas, balki zamonaviy jamiyat uchun jiddiy global tahdiddir. Har yili dunyoning turli burchaklarida odamlar hayotdan mahrum bo'ladi, ayniqsa qishloq joylarda hayvonlar bilan yaqin aloqada bo'lgan aholida.

Kasallikning yuqori letalligi va tez tarqalishi, shuningdek, davolash bosqichi kech boshlanganida samarali bo'lmasligi, uni inson salomatligi uchun o'ta xavfli muammoga aylantiradi.

Bugungi kunda profilaktik choralar yetarli emasligi, hayvonlarni nazorat qilish va vaksina yetishmasligi, kasallikni global darajada xavfli qiladi. Shu sababli, quturish kasalligi bilan bog'liq tadbirlar va ma'rifiy ishlar hayotni saqlash va pandemik xavflardan himoya qilishda muhim ahamiyatga ega.

Kirish

Quturish — bu markaziy asab tizimini zararlovchi virusli infeksiyon kasallik bo'lib, deyarli har doim o'lim bilan yakunlanadi. Kasallikning tarqalishi va yuqishi asosan hayvonlar (itlar, yovvoyi hayvonlar) orqali sodir bo'ladi.

Insonning immun tizimi virusni tez bartaraf eta olmaydi, shuning uchun tezkor profilaktika va vaksina muhimdir. Quturish bilan bog'liq ilmiy tadqiqotlar kasallikning tarqalish mexanizmi, klinik belgilar va oldini olish choralari aniqlashga qaratilgan.

Etiologiya va patogenez

Quturish virusli kasallik bo'lib, Rhabdoviridae oilasiga mansub. Virus asab tizimiga kirib, markaziy nerv tizimi hujayralarini zararlaydi.

Kasallik incubatsiya davri 2 haftadan bir necha oyga qadar davom etadi. Boshlanishida alomatlar: isitma, bosh og'rig'i, charchoq, keyinchalik esa nevrologik belgilar paydo bo'ladi.

Patogenez: virus hududiy hujayralarni zararlaydi → asab tizimida ko'payadi → miyaga kiradi → o'limga olib keladi.

Epidemiologiya

Kasallik ko'proq qishloq joylarda, hayvonlar bilan yaqin aloqada bo'lgan aholida uchraydi.

Yovvoyi hayvonlar (ayiq, tulki) va uy hayvonlari (it) virusning asosiy manbai hisoblanadi.

Dunyo bo'yicha yillik 59 000 dan ortiq o'lim qayd etiladi (WHO, 2020).

Klinik belgilar

1. Boshlang'ich: isitma, bosh og'rig'i, charchoq
2. O'rta bosqich: tishlash yoki tirnash hissi joyida og'riq, suvdan qo'rquv (hidrofobiya)

3. So'nggi bosqich: nevrologik buzilishlar, spazmlar, ko'ngil aynishi, o'lim
- Davolash va profilaktika

Kasallik boshlangandan keyin deyarli davolanmaydi

Oldini olish muhim:

Itlarni vaksina qilish

Yovvoyi hayvonlardan ehtiyot bo'lish

Hayvon tishlagan holatda tezkor postekspozitsion profilaktika

Xulosa

Quturish kasalligi — inson salomatligi uchun global tahdid, yuqori letallik bilan tavsiflanadi. Kasallikni oldini olishda profilaktik chora va vaksina eng samarali vositalardir. Shu bois, ilmiy tadqiqotlar va ma'rifiy ishlar hayotni saqlash va pandemik xavflardan himoya qilishda strategik ahamiyatga ega.

ADABIYOTLAR

1. Majidov. Yuqumli kasalliklar. — Toshkent, 1993.
2. Saparov. O'ta xavfli yuqumli kasalliklar. — Toshkent, 2018.
3. Musaboyev, Bayjanov. Yuqumli kasalliklar epidemiologiyasi va parazitologiya. — Toshkent, 2007.